



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- yil yanvar oyi



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar oyi)



**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi -
50,6%**



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi –
577,4
ming so'm**




**Xizmatlar
sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi - 64,9%**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda





Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(yanvar oyi holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar oyi)



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar oyi holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(yanvar oyi)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar oyi)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar oyi)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar oyi)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati ¹⁾	522,7	100,0	114,9
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	230,0	44,0	114,1
Shirin	7,6	1,5	118,4
Yangiyer	41,5	7,9	124,9
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	44,9	8,6	122,7
Guliston	22,6	4,3	113,5
Mirzaobod	22,9	4,4	112,8
Oqoltin	16,3	3,1	115,0
Sardoba	19,7	3,8	115,4
Sayxunobod	22,6	4,3	113,5
Sirdaryo	70,8	13,5	111,1
Xovos	23,8	4,6	108,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar oyi)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar oyi)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar oyi)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxona subyektlarining ulushi **51,0** foizni, shu jumladan, **21,2** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar oyi)



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar oyi)


Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	522,7	100,0	114,9
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	31,0	5,9	110,8
Moliyaviy xizmatlar	179,6	34,4	118,1
Transport xizmatlari	73,1	14,0	114,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	69,0	13,2	108,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	12,1	2,3	109,0
Savdo xizmatlari	118,4	22,7	108,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	14,4	2,8	121,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	14,0	2,7	114,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	11,7	2,2	114,7
Ijara xizmatlari	9,5	1,8	108,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	12,5	2,4	110,1
Shaxsiy xizmatlar	10,9	2,1	111,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3,9	0,7	110,6
Boshqa xizmatlar	31,6	6,0	140,9

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar oyi)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar oyi)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar oyi)



Moliyaviy xizmatlar-ning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi 63,2 foizni yoki 113,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan Yangiyer shahrida yuqori o'sish sur'ati 169,6 % ni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sishi


Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **94,4 %**.

Guliston shahrida transport xizmatlari hajmi **17,5** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **113,7 %** ni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar oyi)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar oyi)





¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

⚙ O'sishi

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar oyi)

2024- yil yanvar oyi
avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **69,0** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,2 %** ni tashkil etdi.



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2024- yilning yanvar oyida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **71,1** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar oyi)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar oyi)



Guliston shahri	30,0	107,3%
Sirdaryo tumani	23,6	111,1%
Yangiyer shahri	13,3	111,1%
Boyovut tumani	9,7	104,8%
Mirzaobod tumani	8,6	111,0%
Xovos tumani	7,7	110,9%
Sayxunobod tumani	6,7	89,1%
Sardoba tumani	5,8	111,5%
Guliston tumani	5,6	111,4%
Oqoltin tumani	4,7	110,8%
Shirin shahri	2,7	111,2%


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari-ning umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar oyida ularning ulushi 94,7 foizni tashkil etdi.**

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar oyi)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar oyi)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sishi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar oyi)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar** oyidagi ulushi **65,0 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar oyi)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar oyi)

2024- yilning
yanvar oyida
sog'liqni saqlash
sohasidagi
xizmatlar umumiy
hajmida shifoxona
muassasalarining
xizmatlari salmoqli
qismni egallaydi.
Ularning ulushi
35,0 foizni tashkil
etdi.




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar oyi)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar oyi)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **86,2** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar oyi)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mln. so'mda ● O'sish sur'ati

2024- yilning yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **89,3** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar oyi)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar oyi)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mln. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar oyi)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar oyi, mln. so'mda)




2020- yilning yanvariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **3,8** mlrd. so'mga oshib, **9,5** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar** oyida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **34,4 %** ni tashkil etdi.




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar oyi)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 27,2 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar oyi)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mln. so'mda

O'sishi

Shaxsiy xizmatlar dinamikasi (yanvar oyi)



Hududlar kesimida shaxsiy xizmatlar (2024- yil yanvar oyi, mln. so'mda)



2023- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida shaxsiy xizmatlar hajmi **2,2** mlrd. so'mga oshib, **10,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida sataroshlik xizmatlari ulushi **80,0** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromatlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.